



“JADID NAMOYONDALARI ILMIY-MA'NAVIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI”

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TO'PLAMI

2024-yil 13-iyun



Navoiy – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“JADID NAMOYONDALARI ILMIY-MA’NAVIY
MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI VA
AHAMİYATI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

2024-yil 13-iyun

Navoiy – 2024

Ahmadov O.Sh	<i>Buxoro madrasalaridai ta'lim-tarbiyadagi taraqqiyparvarlarning o'rni</i>	313
Kuvandikov Sh.O	<i>Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy-ma'naviy merosining tasnifi va yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati</i>	317
Sulaymonova Sh.A	<i>Sharof Rashidov – o'zbekiston ssrning birinchi siyosiy rahbari (1959-1983)</i>	319
Junayev Z., Qarshiyeva A	<i>Fayzulla Xo'jayev – millat fidoyisi, xalqparvar rahbar</i>	323
Xudjaqulova F.R	<i>Jadidlar ijodi va faoliyatida milliy g'oya va komil inson masalasi</i>	325
Mirzayev A.A	<i>Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarida hakim at-termiziyning o'rni</i>	327
Doniyorova D.	<i>Abdurauf Fitrat - birinchi o'zbek professori</i>	332
Ergashev G'.B	<i>Buxoro so'nggi hukumdorining muhojirlikdagi qismati mahalliy davriy matbuot talqinida</i>	336
Quvvatov S.I	<i>Turkiston jadidchilarining estetik qarashlari va uning ijtimoiy hayotdagi dolzarbligi</i>	337
Nasriyeva M.A	<i>“Turkiston qishloq xo'jaligi” jurnali faoliyati tarixidan</i>	339
Otaqulova G.A	<i>Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijtimoiylashuvida jadid namoyondalari ilmiy-ma'naviy merosining ahamiyati</i>	342
Danabekov A.S	<i>Abdulla Avloniy merosining yoshlar tarbiyasi va jamiyat hayotidagi ahamiyati</i>	344
Norbekov A.N., Karimova S.O'	<i>Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy huquqiy qarashlari</i>	346
Kadirova Z.I	<i>Jadid ma'rifatparvarlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni</i>	349
Shodiyeva A.Z	<i>Jadid namoyondalari ilmiy-ma'naviy meroslarining Bugungi yoshlar tarbiyasi va jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati</i>	352
Mahkamova G.K	<i>Jadid namoyondalari ilmiy-ma'naviy meroslari bugungi yoshlar tarbiyasi va jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati</i>	355
4-SHO'BA JADID MA'RIFATPARVARLIK MASALALARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI		
Rajabov Q.K	<i>Turkiston aholisi milliy tarkibining xx asrda o'zgarishi hamda o'zbeklar miqdori</i>	359
Rajabov Q.K., Nuriddinov T	<i>Buxoroning xorijga yuborilgan talabalari</i>	379
Yo'ldoshev A.A	<i>XX asr boshlarida tashkil etilgan Toshkent “Jamiyati imdodiya”si tarixidan</i>	383
Boboyev F	<i>Turkiston ASSrda iqtisodiy siyosatning huquqiy asoslari</i>	387
Amonova F.S	<i>Milliy sarmoyadorlar – buxoroda jadidchilik harakatining homiylari</i>	391

O'zbeklardan tashqari boshqa millatlarning amaldorlari, ya'ni qirg'iz manaplari (oqsoqollari), turkman oqsoqollari va qo'rboshilari ham amir huzurida bo'lishgani matbuot sahifalarida bayon etilgan¹.

Amirning kundalik turmushi haqida fikr bildirilar ekan, matbuotdagi ayrim xabarlarda uning tanbur chertishi "bedillonlik" kechalari uyushtirishi kabilar ham nazardan chetda qolmagan.

Mahalliy matbuotda Buxoroning oxirgi amiri Sayid Olimxon bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilinarkan, ular kuchli mafkuraviy ta'sir ostida yozilgani ayon bo'ladi. Amir Olimxonning nafaqat sovet hokimiyatiga, shuningdek xalqiga ham yaxshiligi yo'qligi, maishatparastligi, kundalik hayotini aysh-ishrat bilan o'tkazayotganligi kabilar albatta bir yoqlama yoritilgan. Maqolalarda kommunistik yohud bolshevikcha mafkura yetakchilik qilib, amirni "Vatan xoini", "oddiy xalq qonini so'rgan kishi", "badniyatli shaxs", "qo'rboshilar boshlig'i" kabi salbiy atamalar bilan atalgani yoxud unga qora bo'yoqlarda salbiy baho berilgani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Biroq gazetalardagi maqolalarda qanchalik sovetcha ruh, bolshevikcha mafkuraviy uyuni qilmasin, ularda keltirilgan raqam va dalillar orqali amirning muhojirlikdagi hayoti va faoliyatini tanqidiy-qiyosiy tahlil qilish imkoniyati mavjudligini ham inobatga olish kerak. Bu o'rinda kundalik davriy matbuotning manbaviy ahamiyatini inkor qilish haqiqatni etirof etmaslik bo'ladi.

TURKISTON JADIDCHILARINING ESTETIK QARASHLARI VA UNING IJTIMOIY HAYOTDAGI DOLZARBLIGI

*Quvvatov Sardor Isomiddinovich, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi, ma'rifatparvarlarning estetik qarashlarining shakllanishi va ularning jamiyatda tutgan o'rnini xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, estetika, jamiyat, go'zallik, axloq, ma'rifat, tarbiya.

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy-musulmon o'lkalarida, xususan Qrim, Volgabo'yi, Kavkaz va Turkistonda jadidchilik harakati va ta'limotlari milliy-ozodlik harakatining mafkurasi sifatida yuzaga keladi. Jadidchilik harakatining bosh maqsadi, orzusi millatni ma'rifatli qilish, uni ma'naviy uyg'onish orqali mustaqillikka erishtirish iborat bo'lgan. O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o'z mablag'lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar,

¹ Qarang. Endi navbat Afg'onistonda (Afg'oniston hukumatining sobiq Buxoro amiriga va bosmachilarga yordam ko'rsatayotganligi haqida) "Qizil O'zbekiston" 1926-yil 10-mart. Amirning va bosmachilarning turkman muhojirlari bilan aloqalari. "Qizil O'zbekiston" 1926-yil 27-sentabr.

qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi.[1]

Jadidlarning nafosat borasidagi qarashlari, ideallari ularning xalqni ma'rifatli qilish, ziyo ulashish kabi maqsadlari bilan izohlanadi. Bu Abdulla Avloniy Maxmudxuja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Furqat kabi nomlari zikr ma'rifatparvarlar tomonidan yaratilgan ilmiy va san'at asarlarida o'z aksini topgandir. Jadidchilar san'atni millatni uyg'otish, tarbiyalash vositasi sifatida e'tirof etganlar. Pirovardda Turkiston ma'rifatparvarlarining bosh maqsadi, orzusi xalqni, millatni ma'rifatli qilish, uni ma'naviy-uyg'otish orqali erkka, hurlikka erishish hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mazkur ideal (orzu), maqsad sof siyosiy, mafkuraviy g'oyalar majmui bo'lmasdan, u mohiyatdan estetik ideal tarzida ham talqin etiladi.

Jadidchilik ta'limotining estetik ideali ayniqsa mazkur ta'limot namoyandalari tomonidan yaratilgan san'at asarlarida to'larok va yaqqolroq o'z ifodasini topgandir. Chunki borliqni badiiy-obrazli, his-tuyg'u va tafakkur birligida aks ettiruvchi san'at o'z tabiatiga ko'ra estetik idealni ifodalovchi ijtimoiy ong shaklidir. Xuddi shunga ko'ra san'at o'zining tarbiyaviy-mafkuraviy vazifasini bajaradi. Jadidchilar san'atning bunday tabiatini yaxshi anglaganlar va uni millatni ma'rifatli qilishi va o'z-o'zini anglash vositasini deb bilganlar. Bu borada M.Behbudiyning "Padarkush" pyesasining estetik qimmatini va uning o'z vaqtida millatni o'z-o'zini anglashi, mafkuraviy uyg'onishiga qay darajada xizmat qilganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Pye'sada katta bir boyning o'qimagan Toshmurod ismli o'g'lining yomon yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirganligi tasvirlanadi. Bolaning buzuq yo'lga kirishining sababi otasining uni o'qitmaganligi, uning tarbiyasiga befarq bo'lganligi deb ko'rsatiladi. Chunki boy ilm-ma'rifatdan uzoq, johil, faqat o'z manfaatini o'yladigan shaxsdir. Oqibatda o'g'li o'z otasini o'ldiradi[2]

Asarning mazmunidan shunday xulosa kelib chiqadi: jaholat va nodonlik, ilm-ma'rifatsizlik, xudbinlik eng katta fojeaga-farzandning o'z otasini o'ldirishiga olib keladi va bunday fojea butun bir millat boshiga tushmasligi zarur. Shunga ko'ra muallif o'z asarini «Milliy fojea» deb ataydi. Behbudiy o'z asarida «Millatning ilm-ma'rifatsizligi, jaholatligi - bu fojeadir» degan estetik g'oyani ilgari suradi. Behbudiy bu bilan millatni ana shu fojeadan qaytarishni asosiy vazifa deb biladi.

Jadidchilik ta'limotining asosiy estetik ideali mazkur ta'limotning nomlari qayd etilgan namoyandalarining siyosat, mafkura, axloq, ta'lim,-tarbiya kabi sohalarga oid qarashlarida o'z aksini topadi. Chunonchi, Maxmudxo'ja Behbudiy istiqlol-mustaqillikka erishtirishning bosh yo'li - bu millatni savodli, maorif va madaniyatli qilishdir,-deb ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda, Fitratning har bir asari milliy merosni qayta tiklash va milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratilganligini alohida ta'kidlash joiz. Uning asarlarida istiqlol va taraqqiyot konsepsiyasining estetik ideali bayon etiladi va unga tayanadi. Fitrat badiiy adabiyot nima ekanini anglatish, nazariy amaliy ta'riflash uchun eng avvalo «san'at» va «go'zal san'atlar» iboralarini tushunib olish lozimligini aytadi. U san'atning ikki xil-manfaatli va manfaatsiz, ya'ni hunar san'at hamda sof san'at bo'lishini tanbursoz usta bilan «Iroq» kuyini chalgan tanburchi misolida jonli tushuntirib beradi; tanburning yaxshiligi-ishga yaraganligi, foyda keltirgani. «Iroq kuyining yoxshiligi esa kishiga ma'naviy ta'sir etmak...

Shuning uchun buning yaxshilig'iga, yaxshilik emas go'zallik deyilar. Bunday san'atlarga «go'zal san'atlar» deyiladi. Mutafakkir adib bu bilan bevosita bo'lmasada, bilvosita go'zallikning manfaatsizlik xususiyatini ham ta'kidlayotgani ko'rinib turibdi. [3,70]

Jadidlik harakatining namoyandalari san'at asarlarida katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan mavzularni badiiy obrzli tarzda tasvirlaydilarki, ular ulug'vorlik estetik kategoriyasining mazmuni orqali anglashiladi, idrok etiladi. Shunga ko'ra ular kishilardan yuksak maqsad, ideal-ozodlik yo'lidagi ijtimoiy faollik, safarbarlikka yo'naltiruvchi his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Masalan, Cho'lponning «Xalq» sarlavhali she'ri xuddi shunday estetik qimmatga egadir.

Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir.

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir.[4,408]

Cho'lponning go'zallik haqidagi tushunchasi o'ziga xos, asosan u shoir she'rlarida «go'zal» so'zi orqali aks etadi. Hz fikrini sho'rolar senzurasidan yashirib ifodalash maqsadida shoir «go'zal» so'ziga turli xil ma'nolar yuklaydi: u, bir tomondan, ko'p yetmas go'zal yor, ikkinchi tomondan sururiy (romantik) go'zallik. Lekin har ikki xolatda ham tagma'no tutqunlikka mahkum go'zallikni, go'zal Turkistonni o'zida mujassam etadi.

Mulohazalarimiz xotimasida shuni alohida ta'kidlash kerakki, Turkiston jadid ma'rifatchilari qisqa vaqt ichida nafis san'at targ'ibotini yo'lga qo'yidilar. Afsuski, yangi mustamlakachilik siyosati asosiga qurilgan Sho'rolar davlati ularni qatag'on qilib, asarlarini ta'qiqlab, Turkiston xalqlari Uyg'onishi harakatiga chek qo'ydi. Shunga qaramay, ular qoldirgan meros bugungi kunda ham o'zining ahamiyati va ta'sir kuchini yo'qotmadi. Ularning boy merosidan hozirgi kundagi mafkuraviy bo'hronlarga qarshi g'oyaviy-ma'naviy immunitet sifatida yosh avlod tarbiyasida oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://daryo.uz/2023/03/06/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-merosini-organishga-bagishlangan-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrik-yolladi>
2. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/mahmudxoja-behbudiy/mahmudxoja-behbudiy-padarkush-drama/>
3. Abdulla Sher, Estetika, T.: "O'zbekiston", 2014. 177-b
4. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. T. 1991y., 408-bet.

“TURKISTON QISHLOQ XO'JALIGI” JURNALI FAOLIYATI

TARIXIDAN

Narziyeva Maftuna Adxamovna, Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda Turkiston qishloq xo'jalik jamiyatining “Turkiston qishloq xo'jaligi” jurnali, unda bosilgan maqolalar va xabarlar, bog'dorchilik, mevachilik, uzumchilik, vinochilik, dala yumushlari, paxtachilik kabi sohalar hamda qishloq xo'jaligi mashinasozligi yo'nalishlarida olib borilgan ishlar manbalar asosida ochib berilgan. Bundan